



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

B. X. Karimova, PhD¹

¹ Termiz davlat universiteti Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrasи v.b.
dotsenti

**“OILAVIY BOLALAR UYLARI” BOSHLANG‘ICH SINF YOSHIDAGI
TARBIYALANUVCHILARIDA VATANPARVARLIK TUYG‘USINI MILLIY
G‘URURNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA TARBIYALASH**

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Oilaviy bolalar uylari” tarbiyalanuvchilarida vatanparvarlik tuyg‘usini milliy g‘ururni shakllantirish asosida takomillashtirishga erishish mumkinligi haqida fikrlar bayoni keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiyalanuvchi, milliy g‘urur, odob, omil, shakl, g‘amxo‘r, faxr, iftixor, faxrlanish, mag‘rur, quvonch, quvonish.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikdan keyin davlatning barcha ichki va tashqi siyosati, islohotlarning birinchi bosqichida olib borgan siyosati va ikkinchi bosqichda amalga oshirayotgan tarixiy umumbashariy ishlari tufayli butun dunyoga tanildi va tan olindi. Bu o‘zbek xalqining milliy g‘ururi ijtimoiy hayotimizni isloh qilish va yangilash boshlanib ketganligi bois ma’naviy madaniyatning qudratli qatlamlari ochildi. Ular xalq ruhiyatini vatanparvarlik, milliy iftixor, butun dunyo uchun bag‘rikenglik tomon keskin o‘zgartirib yubordi [1; 142].

Bugungi kunda boquvchisidan ajralgan bolalarga nisbatan davlatimiz g‘amxo‘rligi alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bu yetim bolalarga nisbatan e’tiborning namunasidir.

Mamlakatimizda “Oilaviy bolalar uylari” tashkil etilishi boquvchisidan ajralgan bolalarni voyaga yetkazishning qulay yo‘nalishi hisoblanadi.

Oilaviy bolalar uylari boshlang‘ich sinf yoshdagi tarbiyalanuvchilarda milliy g‘ururni tarbiyalash omillari, shakllari hamda interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga

ega. Tarbiyalanuvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini milliy g'ururni shakllantirish asosida takomillashtirib borish mumkin.

Aynan, ushbu maqola ham keltirilgan maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. "Oilaviy bolalar uylari boshlang'ich sinf yoshidagi tarbiyalanuvchilarda milliy g'ururni shakllantirish" mazmunini yoritishda asosiy tayanch tushunchalar mazmuniga e'tibor qaratish va uni tushunmoq zarur, ya'ni g'urur, milliy g'urur.

Milliy g'urur haqida fikr yuritar ekanmiz, eng avvalo, g'urur haqida, so'ngra milliy g'urur mazmuni nimani ifoda etishi to'g'risida to'xtalamiz. Chunki milliy g'ururni tarkib toptirish va tarbiyalash kabi psixologik-pedagogik muammoni hal qilish zikr qilingan so'z va so'z birikmalari ma'nosi bilan bevosita bog'liq.

G'urur so'zi faxr, iftixor, faxrlanish, mag'rur, quvonch, quvonish kabi ma'nolarni anglatadi. Mumtoz she'riyat va nasrlarda, faxriya, ballada va dostonlarda, xalq og'zaki ijodida ham yuqoridagi so'zlar ma'nodosh (sinonim) ma'no-mazmunda foydalanilgan. G'urur so'zining ta'mi non isidek lazzatli, havo bilan suvdek aziz. G'urur-insonlarga berilgan tuyg'ular ichida bebahosi[8; 5-9].

Tilini, dinini, tarixini, ajodlarining mazmunli hayotini, olamshumul kashfiyotlarini yaxshi bilgan, o'rgangan kishigina, o'zining kimligini anglash mumkin va uning qalbida, vujudida va ruhida faxrlanish tuyg'usi vujudga keladi. Shuningdek, unda ajdodlariga sodiq qolib, o'zini kamol toptirishga bo'lgan intilish insonning g'ururini, uning haqiqiy fazilatlarini yuksaltiradi.

Milliy g'urur muayyan millatning tarixiy o'tmishidan, milliy qadriyatlaridan, jahon miqyosida asrlar osha tan olinib kelinayotgan fan, din, adabiyot, san'at va madaniyat yutuqlari va ularni yaratgan daholardan, tarixiy obida va yodgorliklaridan, milliy urf-odatlari-yu, an'analaridan, ona-Vatanidan, dono xalqidan, Vatanining go'zal o'tmishi va bugunidan, milliy xalq qahramonlaridan faxrlanish va iftixor qilish tuyg'usi.

Milliy g'urur haqida professor S.Otamuratov quyidagilarni ta'kidlaydi. Milliy g'urur milliy iftixor. Milliy g'urur o'z xalqining bir necha yillar davomida yaratib kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlari, an'analar, odob-axloqi, turmush tarzi, yuksak ma'naviyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat va e'zoz bilan munosabatda bo'lish, avaylab asrash.

M.Quronovning yozishicha, milliy g'urur millatning moddiy va ma'naviy meroslari, xalqi, ona yurti bilan faxrlanishi, millat psixologiyasiga oid qarashlar, munosabatlar demak. U insonning tug'ilib o'sgan, kindik qoni tomgan yurtini ulug'lashda, uning o'tmishi, buguni kelajagi uchun qayg'urish va faxrlanishida o'z aksini topadi. U.Mahkamovning fikriga ko'ra milliy g'urur iftixor, xalqning qudratini, orzu intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug'kuch.

Milliy g'urur-xalqning, el yurtning ulug'vorligi, xayotiyligi va haqqoniyligi bilan ajralib turadi. Milliy g'urur xalqni xalq, millatni millat qilib ko'rsatadi. O'zbekiston mustaqilligi tufayli o'zbek xalqining milliy g'urur tuyg'usi butun jahon bo'ylab qad ko'tardi. Shu bois bugungi kunda O'zbekiston nufuzli mamlakatlar qatorida tan olindi.

U.Mahkamovning fikricha, g'ururli bo'lish, xalq manfaatlarini yoqlash, elga foyda keltirish xalqimiz o'z hayoti, turmush tarzida eng olijanob g'oyalarni mujassam etgan odob-axloq qoidalariga, ma'naviy qadriyatlariga tayanib kelgan. Shunday ilg'or g'oyalar tufayli elimizda adolat, rostgo'ylik, halollik pokizalik, birovning haqqiga xiyonat qilmaslik,

nogironlarga mehrli bo'lish, odamiylik, qardoshlik va boshqa insoniy qadriyatlar rivoj topgan. Milliy g'ururning asl mohiyatida ana shu umuminsoniy tuyg'ular yotadi [5; 18].

R.A.Mavlonova milliy sharqona tarbiya yuzasidan tarbiyalanuvchilarning milliy tarbiyalanganlik ko'rsatkichlari va mezonlarining taxminiy namunasini keltirish orqali milliy g'ururga quyidagicha ta'rif beradi. "O'zining o'zbek millatiga mansubligini anglash, o'zbek xalqi tushunchasining tub mohiyatini tushunish, o'zini o'z millatining farzandi deb bilib, milliy burchlarini anglash, ona tilini cheksiz sevish, shu tilda to'g'ri so'zlash va fikrlashni anglatadi".

Bugungi kunda yosh avlodni milliy g'ururli qilib tarbiyalash ta'lim-tarbiya oldida turgan ulkan vazifalardan hisoblanadi. Shunday ekan bu borada har bir tarbiyachi pedagog mas'ul. Bolani boshlang'ich sinf davridayoq milliy g'urur iftixori ila tarbiyalash lozim.

Faxr - iftixor bilan yashash: millatning tiliga-diniga hurmatda bo'lish: tarixini bilish: ajodlarining boy merosini qadrash: olamshumul kashfiyotlarini o'rganish: fan, din, adabiyot, san'at va madaniyat yutuqlari va ularni yaratgan daholardan, tarixiy obida va yodgorliklaridan, milliy urf-odatlari-yu, an'analaridan, ona-Vatanidan, dono xalqidan, Vatanining go'zal o'tmishi va bugunidan, milliy xalq qahramonlaridan faxrlanish va iftixor qilish tuyg'ulari. Shuningdek, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat va e'zoz bilan munosabatda bo'lish, ularni avaylab-asrash kabi munosabatlar shakllanadi.

Milliyiig'urur esa faxr iftixor tuyg'usini ifodalaydi. Demak, har bir bolada, eng avvalo, milliy g'ururni shakllantirmoq zarur.

Ma'naviyatli, ma'rifatli kishilarda milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usi, oriyat kuchli bo'ladi. Ana shunday, fazilatlarga ega bo'lgan kishilar o'z millati, el-ulusi manfaati sharafini himoya qilishni o'zi uchun sharaf deb biladi. Ayniqsa, ota-onas qarovisiz qolgan, mehrga muxtoj bolalar kelajagiga bo'lgan munosabat o'zgarishi natijasida tarbiyalanuvchilarning tafakkurini o'zgartirish, ularni har tomonlama komil inson sifatida milliy g'ururli qilib tarbiyalash muhim vazifalardan hiosoblanadi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda samarali yo'llarni tanlamoq zarur. Jumladan, tarbiyalanuvchilarning vatandan faxrlanish hissini milliy g'urur tuyg'usi asosida berish mumkin.

Mustaqil mamlakatimiz bugungi kunda yoshlarimizni har tomonlama ma'naviy - ma'rifiy jihatdan o'zini tuta bilgan, o'z g'ururini himoya qila oladigan kishilarni ko'rishni istaydi.

O'zida milliy g'ururni shakllantirish uchun, kishi o'zi tug'ilib o'sayotgan milliy hududning tili, urf - odati va an'analarini hamda madaniy ma'naviy merosini o'rganish jarayonida, vujudida shu millat vakili ekanligidan mammunlik xissini hosil qila boshlaydi. Bu mammunlik rivojlana borib, milliy g'ururga aylanadi.

Bugungi kunda har bir bolani milliy g'ururli qilib tarbiyalamoq zarur. Bu borada har bir tarbiyachi-pedagogdan mas'uliyatli vazifalarni bajarish talab qilinadi.

Milliy ong uyg'onishi va shakllanishi o'zlikni anglashdan boshlanadi. O'zlikni anglash milliy g'ururni uyg'otadi. O'zlikni anglash o'zbekligini saqlab qolish, namoyon qilish va jahonda o'zligini ko'rsata olish ham.

G'urur so'zi-faxr, iftixor degan ma'noni anglatar ekan, non isidek lazzatli, havo bilan suvdek aziz.

Bolada milliy g'ururni shakllantirish milliy o'zlikni anglashidan, milliy o'zlikni anglash esa odob-axloq qoidasini egallahsdan boshlanadi. Odoblilik eng yaxshi fazilatlarni o'zida mujassam etadi.

"Odob" so'zi inson faoliyatining ayrim sohalariga oid qoidalar va ularga rioya qilish ma'nosida ham ishlataladi. Masalan, turmush odobi, kiyinish odobi, muomala odobi kabilar [3; 10].

Odob-inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida u qadar muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan, milliy urf- odatlarga asoslangan chiroyli xatti - harakatlarni o'z ichiga oladi.

Inson odobi shunchaki salom - alik, xushmuomaladangina iborat emas, u eng avvalo, insof va adolat tuyg'usi, imonlilik, halollik degani. Bolalarga quruq nasihat ta'sir qilmaydi. Yaxshi deb bilgan ishni ishlab ko'rsatish va u ishning yaxshiligiga bolalarni ishontirish kerak.

Bola tarbiya qiladigan odam unga to'g'ri ish va to'g'ri so'zning yaxshi ekanini tushuntirishi zarur. Bolaga yumshoq muomala qilish, uni vaqtida, o'rnida koyish, har vaqt to'g'rilikni saqlash lozim. Shuningdek, tarbiyalanuvchilarning qiziqishi bu davrda nafaqat aqliy, balki jismoniy tayyorgarligi, shaxsiy ijtimoiy-psixologik tayyorgarligiga ham bog'liq. Bu davrda bolaning aqliy faoliyati bilim olish uchun psixologik va biologik jihatdan tayyor bo'ladi. Bola bu davrda tez chalg'iydi, uzoq vaqt diqqatini bir nuqtaga qarata olmaydi.

Milliy g'ururli bolada salbiy munosabat bo'lmaydi. O'zligini anglab, atrofdagilarga nisbatan to'g'ri muloqotga kirishadi, Vatan xizmatiga tayyor turib, ajdodlari merosidan faxrlanish tuyg'usiga ega bo'ladi. Odob-axloq qoidalarini egallagani holda millatidan, xalqidan faxrlanib yashaydi.

Milliy g'urur Vatanni sevish va vatanparvarlik g'oyalari asosida shakllanadi. Shunday ekan, bolaga Vatan haqida bilim berib, uni shakllantirib bormoq lozim. Vatan har kishining tug'ilib o'sgan shahri va mamlakati shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ilgan, o'sgan yerini jonidan ortiq suyar [10; 122].

Milliy ong uyg'onishi va shakllanishi o'zlikni anglashdan boshlanadi. O'zlikni anglash milliy g'ururni uyg'otadi. O'zlikni anglash o'zbekligini saqlab qolish, namoyon qilish va jahonda o'zligini ko'rsata olish ham.

G'urur so'zi-faxr, iftixor degan ma'noni anglatar ekan, non isidek lazzatli, havo bilan suvdek aziz.

Vatan muqaddas. Ulug' mutafakkirlarning biri vatan to'g'risida shunday degan ekan: "Barkamol va sog'lom qalbda Vatan taqdiri mumtoz o'rinni ishg'ol etadi". Har qanday olijanob shaxs Vatan bilan qon-qondoshligini teran anglaydi. Shunday odamgina vatanparvar bo'ladi. Xullas, Vatanga muhabbat bilan, insoniyatga muhabbat esh bo'lmos'i darkor. Har bir vatanparvar o'z vatani uchun kuch-g'ayratini ayamasligi lozim. Vatan to'g'risida yana bir ulug' donishmand shunday deydi: Iloji boricha vatanni tark etma, g'urbatning ranj - mashaqqatiga havaslanma. Vatangado bo'lib yurish ikkinchi azob degani. Vatanni sevish imon nishonasi, kishida imon bor ekan, uning so'nggi manzili farovon hayot.

Vatanni sevish uning toshu tuprog'ini zarga almashtirmaslik, undagi har bir daraxt-u yaprog'ini aziz bilish demak. Vatanni sevish, ardoqlash, uni e'tiqod va o'ktamlik bilan har qanday balo-yu qazolardan saqlash har birimizning burchimiz va vazifamiz [9; 67 - 69].

Har bir inson o‘z Vatanini sevadi, hatto bu hadislarda ham keltirilgan, jumladan, “Vatanni sevmoq iymondandur”.

Insonning birinchi Vatani haqida quyidagi hadisni keltiramiz. “Insonning birinchi Vatani ona qorni. U tug‘ilgach, tug‘ilgan joyi unga Vatan bo‘la oladi”. Vatan dunyodagi eng aziz inson ona vujudiga tenglashtirilar ekan, biz onamizni asragandek, o‘z Vatanimizni asramog‘imiz kerak.

Fikrlarimizni fan misolida keltirishni lozim deb bildik. Aynan, 1-sinf “Tarbiya” darsligini misol tariqasida keltirdik.

1-sinf uchun “Tarbiya” darsligining birinchi bobi “Men O‘zbekiston farzandiman” deb nomlanib, bunda Yurt farzandlarining odob-axloq qoidalari, uning mas’uliyati, burchi, bilim olishdagi vazifalari, muomalasi, boshqalar mehnatini qadriga yetish, o‘zaro hurmat, salomlashish qoidalari, darsga munosabati, har bir mulkka nisbatan hurmatda bo‘lish va shu kabi barcha burch va odob qoidalari mazmuni keltirilgan. Shuningdek, orzu qilish asosida turli kasb egalari bo‘lish va vatanga xizmat qilish mas’uliyati berilgan.

Mavzular asosida Vatanga muhabbat tuyg‘usi, ifodalangan. Ushbu bo‘lim mavzulari orqali bolada vatanparvarlik, Vatandan faxrlanish kabi xususiyatlar shakllanadi. Vatan aziz inson onaga tenglashtirilib, ona - Vatan deb ataladi.

1-sinf tarbiyalanuvchilarida ushbu tuyg‘uni shakllantirish uchun hadislardan foydalanish maqsadga muvofiq. 1-sinf tarbiyalanuvchilarida milliy g‘ururni shakllantirishda “Tarbiya” fanini o‘qish bilan birgalikda sinfdan tashqari ishlar va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni samarali tashkil etish orqali maqsadga erishish mumkin. Bunda milliy g‘ururni shakllantirishga oid hadislardan namunalar keltirib, mazmunini tarbiyalanuvchilarning mustaqil anglashi asosida maqsadga erishish mumkin.

Keltirilgan hadislar mazmunini tarbiyalanuvchilar tushunishlari uchun yoshiga va hadisga mos ertaklardan namunalar keltirish mumkin, chunki 1- sinf bolalari ertaklarga juda qiziqishadi. Ertaklarda yovuzlik ustidan ezgulik g‘alaba qozongan. Keltirilgan hadislar mazmunini ertaklar asosida tushuntirish maqsadga muvofiqligi kuzatildi. Ulardan tarbiyalanuvchilar to‘g‘ri xulosa chiqaradilar, shuningdek, hadis mazmunini tushunib oladilar. Hadis mazmuni asosida keltirilgan Yetti qiz ertagini rollarga bo‘lib tarbiyalanuvchilarga mazmunini yetkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tarbiyalanuvchi hadis mazmunini yodda saqlab qolish bilan birga sahnada rol ijro etishga ham odatlanib boradi. Shuningdek, yodda tez saqlab qoladi. Bu jarayonda imitatsion texnologiyalardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tarbiyalanuvchilar hadis mazmunini tushunishda xalq og‘zaki ijodidan omil sifadida foydalandik. Buning ahamiyati muhim sanaladi. Qo‘srimcha ravishda imitatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ya’ni rolli o‘yinlardan tarbiyalanuvchilarning darsdan tashqari mashg‘ulotlarida foydalanish samarasi ijobiy hisoblanadi.

Yetti qiz ertagi asosida rolli o‘yindan foydalaniladi. Bunda ertak qahramonlari bilan qisqacha tanishtiriladi. Ertak qahramonlari asosida rollarga bo‘linadi. Olgan rollarini vazifasini va ertak matnidagi fikrlari bilan tanishib olishadi. Ma’lum vaqt tayyorlanish uchun belgilanadi. Ertak qahramonlari asosida rollarga bo‘lingan tarbiyalanuvchilar tayyorgarlikdan so‘ng berilgan topshiriqni bajarishadi.


Tarbiyalanuvchilar rollarni ertak mazmuni asosida ijro etgach tarbiyachi tomonidan rag‘batlantiriladi. Ertak mazmuni asosida tarbiyachi savollar bilan murojaat etadi. Masalan:

1. Siz ertakdan nimalarni tushunib oldingiz?
 2. Qizlar to‘g‘ri ish qilishdimi?
 3. Qizlarning jasoratini vatanga, xalqiga vafodorlik deb bilasizmi?
 4. Agar podshoh qizlari shunday yo‘l tutmaganida nima bo‘lishini tasavvur qila olasizmi?
 5. Podshoh qizlari bajargan ishni burch deya aytish mumkinmi?
 6. Siz bo‘lganingizda qanday yo‘l tutar edingiz?

Tarbiyalanuvchilar bilan fikr-mulohaza olib borilgach mashg'ulot faollari tarbiyachi tomonidan rag'batlantiriladi.

Hadislarning izohiga oid krossvordlar keltirildi. Ular asosida hadis mazmunini yodda saqlab qolish imkoniyati bo‘ladi.

Mustaqil ishlash uchun krossvord topshirig‘i



Krossvord savollari:


1. Sentabr mustaqillik ...
 2. Mustaqillik oyi ...
 3. Mustaqil O‘zbekiston o‘zining davlat ...ga ega.

Keltirilgan barcha ma'lumotlar milliy g'ururning nazariy jihatini asoslaydi, ya'ni o'quvchiga milliy g'urur mazmunini, nima uchun insonga kerakligini hamda miliy g'urnuri hadislar asosida shakllantirish imkoniyatlariga qaratilgan. Shuningdek, hadis va uning mazmuni haqida tushunchaga ega bo'lish yo'llari ko'rsatilgan. Hadislar mazmuniga mos ertaklar keltirildi, tarbiyalanuvchining tez tushunishi inobatga olingan.

Bolani aqliy ishlashga undovchi hadis mazmuniga mos krossvordlar keltirilgan. Demak, ularning barchasi milliy g‘ururni shakllantirishga asos bo‘la oladi. 1-sinf o‘quvchisi olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llashga nisbatan qiziqishi ustun bo‘ladi. Shundagina yodda saqlab qolish va hayotda amal qilish malakalariga ega bo‘lib boradi.

Keltirilgan fikrlarga asoslangan holda, amaliy ish doimo samarali ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlash joiz. Shuning uchun quyida mavzuning amaliyatga tatbiq etish yo’llari keltirildi. Endi esa milliy g’ururni hadislar asosida shakllantirishga oid amaliy ishlar mazmunini taqdim etamiz. Buning uchun chizma asosida aqliy hujumdan foydalanish o’rinli. Keltirilgan tasyirning bir tomonida Vatan mavzusiga oid hadislar, ikkinchi tomoniga esa

hadisni o'zlashtirish natijasida hosil bo'lgan milliy g'ururni shakllantiruvchi mezonlar yoziladi. Masalan, quyidagicha:



1-rasm. Quyosh chizmasi

1 - sinf tarbiyalanuvchilariga tarqatiladi. Shu asosida topshiriq olishadi, ya'ni o'ng tomondagi hadislar mazmuni o'zlashtirilgach, chap tomongan shu asosida mezonlar yoziladi. (Har bir sinf kesimida keltirilgan hadis mazmuni shu tartibda tarbiyalanuvchilar tomonidan bajariladi). Natijada, bola burchlarini xis qiladi va ularni mas'uliyat deb qabul qilishga odatlana boshlaydi. Bu esa milliy g'ururni ya'ni vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Oilaviy bolalar uylari boshlang'ich sinf yoshidagi tarbiyalanuvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini milliy g'ururni shakllantirish asosida takomillashtirib borish maqsadga muvofiq. Bu borada tarbiyachi-pedagoglar mas'uldirlar. Ushbu mas'ullikni burch deya qabul qilishi va yaqindan yondashmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagи "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol yetib tarbiyalash, ularga ta'lrim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sон qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018 y., 07/18/3907/1706-sон.
2. Asqarova O'. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Ped. fan. dok. ... diss. - T., 2018. - 251 b.
3. Aliybek Rustamiy. Adiblar odobidan adablar. - T.: Ma'naviyat, 2003. - b.
4. Asqarova O'. Mehribonlik uylari o'smirlarida milliy g'ururni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari. Avtoreferat. - T., 2001. - 22 b.
5. Vohidova N.X. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi asosida milliy g'ururni tarbiyalash. P.f.n. dissertatsiya. - T., 2011. - 155 b.
6. Mo'minova L. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy – pedagogik muammolari. //Xalq ta'limi. -2018. -5-son. -B. 144-145.
7. Musurmonova O. va boshq. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari. – T., 2001. - 122 b.
8. Mahmudov Yu. va boshq. Milliy g'urur-ma'naviy komilllik mezoni. - T.: Dizayn - press, 2011. - 276 b.

9. Niyoziy S., Ahmedov G. Sharqona odob - axloq - milliy tarbiyamiz asosi. - T.: O'zbekiston, 2012. - 160 b.
10. Xudoyqulov X.J. Odob-axloq va tarbiya durdonalari. - T.: Yangi asr avlod, 2010. -122 b.
11. Askarovich, M. S., Qizi, O. N. B., & Kizi, M. I. B. (2021). FORMATION OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL COMPETENCES OF FUTURE TEACHERS OF CHEMISTRY. *Вестник науки и образования*, (6-3 (109)), 28-31.
12. Karimova, B. (2019). POSSIBILITIES OF FORMATION OF NATIONAL PRIDE WITH USING KHADITHS IN THE FIRST-YEAR PUPILS OF ORPHANAGES. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(11).
13. Karimova, B. K., & Oripova, M. S. (2021). Formation of national pride based on hadiths in primary school children of houses of kindness. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 652-665.
14. Karimova, B. X. (2021). MEHRIBONLIK UYLARI BOSHLANG'ICH SINF TARBIYALANUVCHILARIDA MILLIY G'URURNI HADISLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 952-961.
15. Kh, K. B. (2019). Формирование чувства национальной гордости воспитанников начальных классов домов милосердия посредством хадисов. *International scientific review*, (LXIV), 54-56.
16. Marayimova, K. I. (2020). Museum excursions as an innovative approach in continuous education of students. *Solid State Technology*, 63(4), 5080-5085.
17. Shermukhammadov, B. (2022). Creativity of a Teacher in an Innovative Educational Environment. *Journal of Higher Education Theory and Practice*, 22(12), 127.
18. Solievich, T. N. (2022). Specific aspects of improving the quality of education in higher education institutions. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(9), 31-34.
19. TEMIROV, N. (1992). QUESTIONMAKING WITHOUT QUESTIONNAIRE. *SOTSILOGICHESKIE ISSLEDOVANIYA*, (12), 104-105.
20. TEMIROV, N. (1995). SCHOOLCHILDREN OF UZBEKISTAN-THE IMAGE OF FAMILY. *SOTSILOGICHESKIE ISSLEDOVANIYA*, (7), 53-56.
21. Temirov, N. S. (1996). The school students of Uzbekistan: Image of the family. *Russian Education & Society*, 38(8), 80-89.
22. Temirov, N. S. (1997). The life values of rural school students in Uzbekistan. *Russian Education & Society*, 39(10), 21-31.
23. Tuychieva, I. (2015). The concept of pedagogical innovation in modern education. *The Advanced Science Journal*, 87-90.
24. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021). THE PEDAGOGICAL SYSTEM OF PREPARING BOYS FOR FAMILY

RELATIONSHIPS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. 湖南大学学报 (自然科學版), 48(8).

25. Urinova, N. M., & Abdullaeva, N. (2021). Opportunities to use project-based teaching technology in the development of students' research competence. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2344-2348.
26. Urinova, N., & Abdullaeva, N. (2020). Opportunities for formulating research skills for higher education students. *Молодой ученый*, (11), 193-195.
27. Джалалов, Б. Б. (2020). Ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишнинг назарий методологик асослари. *Педагогика ва психологияда инновациялар*, 10(3).
28. Джалалов, Б. Б., Хатамов, Х. А., & Насайдинова, Ф. У. (2016). Преимущества коллективного обучения. *Ученый XXI века*, 40.
29. Каримова, Б. Х. (2019). ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ У ВОСПИТАННИКОВ 2 КЛАССОВ ДОМОВ МЕХРИБОНЛИК НА ОСНОВЕ ХАДИСОВ. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 35-37).
30. Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2016). OBJECTIVES OF THE YOUTH ACTIVITY BY TEACHING TRAINING. *Учёный XXI века*, (6-2 (19)), 41-44.
31. Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2016). ЗАДАЧИ РАЗВИТИЯ АКТИВНОСТИ МОЛОДЁЖИ С ПОМОЩЬЮ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТРЕНИНГОВ. *Ученый XXI века*, (6-2).
32. Темиров, Н. С., & Наркабилова, Г. П. (2021). Проблема культуры общения, коммуникативности и социально-коммуникативной деятельности обучающихся в государственной образовательной политике. In традиции и инновации в национальных системах образования (pp. 563-567).
33. Шермухаммадов, Б. (2012). Использование различных методов, форм и средств в воспитании молодежи. *Актуальные проблемы современной науки*, (5), 80-83.